



## QO'RIQLANAYOTGAN OBYEKTlarda "INTEGRALLASHGAN KIRISHNI BOSHQARISH TIZIMLARI" DAN FOYDALANISHNING AHAMIYATI

**Xikmatov Said Safayevich**

*Jamoat Xavfsizligi universiteti ofitseri*

**Anotatsiya:** *Ushbu maqolada kirishni boshqarish vositalari va tizimlari haqida umumiy ma'lumot, boshqarish vositalari va tizimi tarkibi va integrallashning ahamiyati haqida fikrlar bildirilgan.*

**Kalit so'zlar:** *xavfsilik, tizim, qo'riqlash, obyekt, integratsiya, qurilma, dasturiy ta'minot, biometrik ma'lumot, ob'ekt xavfsizligi, konfiguratsiya, funktsiya, nazorat, shaxsiy identifikator, dasturiy ta'minot.*

**Аннотация:** *В этой статье обсуждается обзор средств и систем контроля доступа, важность средств контроля и структуры системы, а также интеграции.*

**Ключевые слова:** *безопасность, система, безопасность, объект, интеграция, устройство, программное обеспечение, биометрия, безопасность объекта, конфигурация, функция, управление, идентификация личности, программное обеспечение.*

**Annotation:** *This article discusses the overview of access control tools and systems, the importance of control tools and system structure, and integration.*

**Key words:** *security, system, security, object, integration, device, software, biometrics, object security, configuration, function, control, personal identity, software.*

Mamlakatimizda amalga oshirilayotgan keng ko'lamli islohotlar doirasida aholining tinch va osoyishta hayotini ta'minlash hamda jamiyatimizda qonunga itoatkorlik va jamoat xavfsizligi madaniyatini shakllantirishga alohida e'tibor qaratilmoqda. Jumladan, jamoat xavfsizligini ta'minlash yo'nalishidagi ishlarni «Xalq manfaatlariga xizmat qilish» tamoyili asosida tashkil etishning mutlaqo yangi mexanizm va tartiblari joriy etilib, davlat organlarining jamoatchilik tuzilmalari bilan o'zaro maqsadli hamkorligi yo'lga qo'yildi. Shu bilan birga, jahonda kuchayib borayotgan turli xavf-xatar va ziddiyatlar, el-yurt tinchligi va osoyishtaligiga tahdidlar, pandemiya, tabiiy va texnogen ofatlar mas'ul davlat tuzilmalariga o'z faoliyatini «Barcha sa'y-harakatlar inson qadri uchun» degan ustuvor g'oya asosida yanada takomillashtirish vazifasini yuklamoqda<sup>25</sup>.

Jamoat xavfsizligi taminlashda obyektlarni xavfsizligi ta'minlash sohasi alohida etiborga ega hisoblanadi. Ushbu sohadagi so'ngi yillarda olib borilgan izlanishlar samarasi o'laroq, ko'plab himoya qilish imkonini beruvchi yangi va zomonaviy

<sup>25</sup> O'zbekiston Respublikasi Prezidentining «O'zbekiston Respublikasi jamoat xavfsizligi konsepsiyasini tasdiqlash va uni amalga oshirish chora-tadbirlari to'g'risida»gi (2021 yil 29 noyabr) PF-27-son farmoni // Qonunchilik ma'lumotlarimilliy bazasi, 01.12.2021 y., 06/21/27/1116-son



xavfsizlik tizimlari takomillashtirilib borilmoqda. Bu kabi tizimlarni amaliyotga tadbiq etish orqali jamiyat uchun qulayliklar yaratilishi bilan bir o'rinda, jismoniy va yuridik shaxslarning mulklari va davlat ob'ektlarini quriqlash sohasining samaradorligini oshirilmoqda

**Qo'riqlanadigan ob'yekt**<sup>26</sup> – belgilangan tartibda qo'riqlashga olingan jismoniy va yuridik shaxslarning binolari, imoratlari, inshootlari, ularning hududlari, joyning uchastkalari, transport vositalari, moddiy boyliklar va boshqa molmulkni tushunish mumkin. Ob'yektlar xavfsizligini ta'minlash o'z ichiga keng qamrovli funksiyalarni olib, qo'riqlanayotgan ob'yektda qo'riqlash faoliyatini tashkillashtirish, uni ichki va tashqi omillar ta'siridan himoya qilish parametrlari bilan tafsiflanadi.

Tashqi omillar – deganda, ob'yektlar xavfsizligiga ta'sir ko'rsatishi mumkin bo'lgan tashqi omillar tushuniladi. Bu kabi omillarga misol qilib, qo'riqlanadigan ob'yekt hududiga ruxsatsiz kirish yoki kirishga bo'lgan urinishlarni keltirish mumkin. Ichki omillar yuqoridagilardan farqli o'laroq ob'ekt ichki hududida mavjud tarmoqlarning buzulishlar, ob'ekt foydalanuvchilari tomonidan kirish tartibini buzush kabilar kiradi.

Qo'riqlanayotgan ob'ektlarning xavfsizligini ta'minlashda kirishni boshqarish tizimlarining o'rni beqiyos hisoblanadi. Nazorat o'tish tartibini tashkillashtirish orqali qo'riqlanadigan toifali obyektlarga, muassalarga, harbiy obyektlar, harbiy shaharchalarga, korxonalar va tashkilotlarga xodimlar, ishchilar, va tashrif buyuruvchilarning kirish-chiqishini tartibga solish, ularni nazorat qilish, kun tartibini bajarilishini joriy etish va davomatni nazorat qilish kabilarni tartibga solishga erishiladi. Kundalik faoliyatda barchamiz bu kabi tizimlar va vositalardan beixtiyor foydalanamiz. Ular juda xilma-xil va ko'p funksiyali tizimlar hisoblanadi, hamda kundalik hayot va ish jarayonlarini osonlashtiradi, qulayroq va tezroq, shuningdek tejamkor bo'lishi uchun xizmat qiladi.

Eng ko'p qo'llaniladigan kirishni boshqarish tizimlariga quyidagilarni sanab o'tishimiz mumkin<sup>27</sup>:

- Oddiy va baland turniketlar;
- Rotorli turniketlar;
- Uch shtangali turniketlar;
- Baland turniketlar;
- Aylanuvchi eshiklarshlagbaumlar;
- Tuxtatish tizimlari;
- Aylanali yoki ikki tomonga suriladigan eshiklar.

<sup>26</sup> "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida" gi O'zbekiston Respublikaasi qonuni O'RQ-778

<sup>27</sup> Комплексные системы безопасности : учебное пособие / В. В. Мешков, Т. В. Рыжкова ;  
Российский государственный профессионально-педагогический университет.



Kirishni boshqarish tizimlariga har qanday xavfsizlik tizimi bilan integratsiyalash masalasi juda muhim hisoblanadi. Shu sababdan bu kabi tizimlarning rivojlanish tendensiyasi ularning intellektualizatsiyasi va boshqa xavfsizlik tizimlari bilan integratsiyalashuvi bo'lib, boshqa avtonom ishlay oladigan ko'plab quyi tizimlarni o'z ichiga oladi, masalan: turli domofonlar, turniketlar, to'siqlar, elektron qulflar, avtomatik eshiklar va boshqa vositalar. Birgina nazorat o'tqazish punktida kirishni boshqarish tizimining integratsiyalashuvi orqali: qo'shimcha fiksatsiya, shaxsni identifikatsiyalashni shuningdek arxivlash imkoniyatiga ega videokamera va dasturiy ta'minot vositalari bilan integratsiyalashga erishish mumkin.

Kirishni boshqarish tizimining asosiy funksiyalari sifatida quyidagilarni ko'rsatish mumkin:

○ Qoriqlanayotgan ob'ekt hududiga tashrif buyurayotganlarni shaxsini aniqlash va ro'yxatga olish, shu jumladan ularning biometrik ma'lumotlarini kiritish orqali saqlash;

○ Qo'riqlanayotgan ob'ekt hududiga ruxsatsiz kirishga yo'l quymaslik;

○ Muassasa xodimlari, mavjud mol-mulk, va moddiy vositalarni xavfsizligini ta'minlash.

Bundan tashqari, kirishni boshqarish tizimidan foydalanish orqali quyidagi vazifalarni hal qilish mumkin:

• Hodimlar tomonidan kunlik davomat, ish vaqti va hisobini yurutish;

• Onlayn rejim orqali vediotasvirlarni saqlash, tashrif buyuruvchilar jurnalini yurutishva bu orqali joriy monitoring ishlarini olib borish;

• Avtoturargohlardagi vaqt hisobini yuritish orqali narxlarni xisoblash;

• Qo'riqlanayotgan obyekt bo'ylab harakatlanayotgan hodimlar va tashrif buyuruvchilarni harakatini kuzatish;

• Videokuzatuv, yong'in signalizatsiya kabi boshqa tizimlar bilan o'zaro aloqada bo'lish.

Kirishni boshqarish tizimining afzalliklari quyidagilar:

• Qo'riqlanayotgan ob'ekt hududiga tashrif buyuruvchilar va nazorat o'tqazish punkti orqali o'tuvchi avtotransport vositalarini shaxsini aniqlash jarayonini avtomatlashtirish va optimallashtirish;

• Tashrif buyuruvchilarni monitoring qilish, idenfikatsiyalash jarayonini va ob'ekt hududiga kirish uchun beriladigan ruxsatnomalarni avtomatlashtirish orqali inson omilini minimallashtirish;

• Nazorat o'tqazish punktlarida maxsus to'siqlar yordamida avtortansport vositalarini ruxsatsiz kirish xavfini minimallashtirish yoki to'liq bartaraf etish;

• Tashrif buyuruvchilarga tegish avtotransport vositalarini oqimini tartibga solish yoki chelash, ularni tekshirish funksiyalarini optimallashtirish shuningdek zarur bo'lganda turniket, qulflash kameralari, avtomatik eshiklar va to'siqlardan foydalangan holda ularni ushlab turush choralarini ko'rish;



• Qo'riqlanayotgan ob'ekt xavfsizligini ta'minlash , tashrif buyuruvchilar va ularning transport vositalarini kuzatish, hisobga olish va monitoring qish xarajatlarini minimallashtirishva optimallashtirish, shuningdek integratsiyalashi mumkin bo'lgan boshqa tizimlarning konfiguratsiyasiga va dasturiy ta'minotiga qarab boshqa ko'plab vazifalarni bajarishi mumkin.

Mamlakatimizda qo'riqlash sohasidagi samaradorligini oshirish , hamda toifalangan obyektlar xavfsizligini ta'minlash uchun jalb qilinadigan naryadlar sonini qisqartirish, muassasalarning moliyaviy xarajatlarini kamaytirish kabi vazifalarni bajarishda integrallashgan kirishni boshqarish tizimlaridan foydalanish orqali erishish mumkin. Nazorat o'tkazish joylari obyektlar xavfsizligini ta'minlashda juda katta ahamiyatga ega. Uning ahamiyatidan kelib chiqqan holda nazorat o'tish joylari va qo'riqlanadigan obektlarni muhandislik texnik qo'riqlash vositalaridan foydalangan holda himoyasini tashkillashtirish o'zining alohida ahamiyatli ekanligi bilan ajralib turadi. Hozirgi kundagi eng dolzarb masala sifatida e'tiborimizni harajatlarni minimal darajaga yetkazgan holda maksimal himoyani ta'minlashga qaratishimiz alohida ahamiyatga ega. Shuningdek bu kabi tizimlardan keng qamrovda foydalanish qo'riqlash sifatini saqlagan holda inson omilini qisqartirishga, jismoniy va yuridik shaxslarning mol-mulkleri, qo'riqlanadigan davlat ob'ektlari xavfsizligini ta'minlash ishonchliligini oshirish uchun xizmat qiladi.

#### FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. "Qo'riqlash faoliyati to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi qonini O'RQ-778
2. Комплексные системы безопасности : учебное пособие / В. В. Мешков, Т. В. Рыжкова ; Российский государственный профессионально-педагогический университет.
3. Петров В. В. Коробкин В. В., Сивенков А. Б Комплексные системы безопасности современного города Южный федеральный ун-т, Ростов н/Д.: Изд-во ЮФУ
4. [vashtvmir.ru/uslugi/kontrol-dostupa-skud](http://vashtvmir.ru/uslugi/kontrol-dostupa-skud)